

TA'LIM TIZIMI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING TA'SIRCHAN VOSITASI SIFATIDA

Ortiqova Nargiza Akramovna,
Qo'qon davlat universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tizimining O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosatini amalga oshirishdagi o'rni va ahamiyati, rivojlangan demokratik davlatlarda ta'lim tizimining boshqaruv organlariga kadrlar yetishtirib berishdagi o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Prezident maktablari, «Taraqqiyot» respublika tanlovi va «Kelajak liderlari» klubi kabi milliy mexanizmlarning kelajak boshqaruv kadrlarini shakllantirishdagi roli asoslanadi. Xalqaro tajriba — Buyuk Britaniya, Fransiya va rivojlangan demokratik davlatlarning elita tayyorlash tizimlari — bilan qiyosiy tahlil amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, boshqaruv salohiyati, siyosiy ierarxiya, lider yoshlar, boshqaruv professionalizmi, liderlik qobiliyati, tizimli fikrlash salohiyati, o'zgarishlarga moslashuvchanlik, kadrlar siyosati, siyosiy elita.

Аннотация. В данной статье научно анализируются роль и значение системы образования в реализации кадровой политики в Республике Узбекистан, а также особенности подготовки кадров для органов государственного управления в развитых демократических странах. Обосновывается роль национальных механизмов, таких как Президентские школы, республиканский конкурс «Тараққиёт» и клуб «Лидеры будущего», в формировании будущих управленческих кадров. Проводится сравнительный анализ международного опыта — систем подготовки элиты в Великобритании, Франции и других развитых демократических государствах.

Ключевые слова: система образования, управленческий потенциал, политическая иерархия, молодые лидеры, управленческий профессионализм, лидерские способности, потенциал системного мышления, адаптивность к изменениям, кадровая политика, политическая элита.

Abstract. This article scientifically analyzes the role and importance of the education system in implementing personnel policy in the Republic of Uzbekistan, as well as the specifics of preparing personnel for management bodies of the education system in developed democratic countries. The role of national mechanisms such as Presidential Schools, the «Taraqqiyot» republican competition and the «Kelajak Liderlari» club in shaping future management personnel is substantiated. A comparative analysis is conducted with international experience — elite preparation systems of Great Britain, France and developed democratic states.

Keywords: education system, managerial potential, political hierarchy, youth leaders, management professionalism, leadership skills, systemic thinking capacity, adaptability to change, personnel policy, political elite.

Kirish. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, siyosiy va iqtisodiy jihatdan rivojlangan barcha davlatlarda ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi muassasa, balki mamlakatning kelajak boshqaruv elitasini shakllantirishning strategik vositasi sifatida qaraladi. Siyosiy ierarxiyaning yuqori cho'qqilariga ko'tarilish uchun qaysi ta'lim muassasasida ta'lim olganligi ko'pincha hal qiluvchi omilga aylanib qolmoqda. Bu hol demokratik jamiyatlarda ham, o'tish davrini boshidan kechiruvchi mamlakatlar uchun ham xos xususiyat bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan kadrlar siyosati islohotlari — Prezident maktablarini tashkil etish, «Taraqqiyot» respublika tanlovi va «Kelajak liderlari»

klubining faoliyati — ta'lim tizimi orqali istiqbolli boshqaruv kadrlarini tizimli asosda shakllantirish yo'lidagi muhim qadamlardir. 2019-yilda qabul qilingan «Kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmon bu yo'nalishda yangi bosqichni boshlab berdi.[1]

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ta'lim tizimining kadrlar siyosatidagi roli O'zbekistonda kompleks ilmiy tahlil nuqtai nazaridan hali to'liq o'rganilmagan. Xalqaro tajribani milliy mexanizmlar bilan qiyosiy o'rganish ushbu sohada yangi nazariy va amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Maqolaning maqsadi — ta'lim tizimining kadrlar siyosatini amalga oshirishdagi ta'sirchanligini xalqaro va milliy tajriba asosida ilmiy jihatdan asoslashdir.

Tadqiqot maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi ta'lim tizimining O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosatini amalga oshirishdagi o'rnini va ta'sirchanligini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot vazifalari qatoriga: (1) rivojlangan demokratik davlatlarda ta'lim tizimi orqali siyosiy va boshqaruv elitesini shakllantirishning xalqaro tajribasini tahlil qilish; (2) O'zbekistondagi milliy mexanizmlar — Prezident maktablari, «Taraqqiyot» tanlovi, «Kelajak liderlari» klubi — faoliyatini ilmiy jihatdan baholash; (3) ta'lim tizimi va kadrlar siyosatini integratsiyalashtirishning takomillashtirilgan modelini taklif etish kiradi.

Adabiyotlar tahlili. Siyosiy elita va ta'lim tizimi o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish G. Mosca va V. Pareto kabi klassik elitologiya vakillarining ishlaridan boshlanadi. Komarovskiy V.S. (2006) tahriridagi «Politologiya» asarida ta'lim tizimining siyosiy ierarxiyani shakllantirishdagi roli batafsilroq tahlil qilinadi, xususan Buyuk Britaniyaning «Public school» kategoriyasidagi maktablar misoli orqali elitaga kirish mexanizmlari ko'rsatiladi.[2]

Ortiqova N.A. (2021) tomonidan «Scopus» bazasida chop etilgan tadqiqotlarda siyosiy elitani shakllantirishning nazariy asoslari va qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.[3] Uning ishlarida demokratiya sharoitida siyosiy elita shakllanishining o'ziga xos qonuniyatlari va ta'lim tizimining bu jarayondagi roli chuqur tahlil etilgan. Karimov I.A. (1995) «Yuqsak malakali mutaxassislar — taraqqiyot omili» asarida milliy kadrlar tayyorlash tizimini yangilashning zarurligi asoslanib, ta'lim va kadrlar siyosatining bog'liqligi ko'rsatilgan.[4]

Xalqaro adabiyotlarda Putnam R.D. (2000) «Bowling Alone» asarida ta'lim tizimining ijtimoiy kapital va fuqarolik liderligini shakllantirish orqali boshqaruv kadrlariga ta'sirini o'rganadi.[5] Bourdieu P. (1989) «The State Nobility» asarida ta'lim muassasalari, ayniqsa «grandes écoles» tizimining Fransiyada boshqaruv elitesini tiklashdagi funksiyasini sosiologik jihatdan tahlil qiladi.[6] Ushbu xalqaro manbalarda ta'lim va kadrlar siyosati o'rtasidagi bog'liqlik turli davlatlar misolida tasdiqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: tizimli tahlil — ta'lim tizimi va kadrlar siyosatini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish uchun; qiyosiy tahlil — xalqaro tajriba (Buyuk Britaniya, Fransiya) va O'zbekiston milliy mexanizmlarini

solishtirish uchun; hujjatlar tahlili — normativ-huquqiy hujjatlar, dasturlar va rasmiy statistik ma'lumotlarni o'rganish uchun; empirik tahlil — «Taraqqiyot» tanlovi statistikasi va Prezident maktablari faoliyati ko'rsatkichlari asosida. Birlamchi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining rasmiy normativ-huquqiy hujjatlari, «Taraqqiyot» tanlovi ochiq statistikasi va muallif tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot natijasida ta'lim tizimining kadrlar siyosatini amalga oshirishdagi ta'sirchan mexanizmlari uch asosiy yo'nalish bo'yicha tahlil qilindi va ularning O'zbekiston uchun ahamiyati asoslandi.

Birinchi yo'nalish. Xalqaro tajriba: ta'lim orqali elita shakllanishi. Buyuk Britaniyada «Public school» kategoriyasidagi maktablar — Eton, Winchester, Rugby, Harrow — mamlakatning bo'lajak rahbarlarini tayyorlash tizimining muhim bo'g'inlari hisoblanadi. Ushbu maktablarda barcha o'quvchilarning 5 foiziga yaqini tahsil olsa-da, aynan shu maktablar siyosiy elitani shakllantiruvchi birlamchi kanallar sanaladi. Eton bitiruvchilaridan o'n sakkiz kishi Bosh Vazir darajasigacha ko'tarilganligi ta'lim muassasasining elita shakllantirishdagi rolini yaqqol ko'rsatadi.[2] Fransiyada «grandes écoles» — eng nufuzli institutlarda o'qishga kirish boshqaruvchilarning oliy qatlamiga kirish va davlat boshqaruvi apparatida obro'li lavozimni egallash imkonini beradi.

Ikkinchi yo'nalish. O'zbekistonda Prezident maktablari tizimi. 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4199-sonli qarori asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida Prezident maktablari tashkil qilindi.[1] Ushbu maktablar ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasalari bo'lib, iqtidorli bolalarni aniqlash, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va manaviy boy, intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalar qo'llanilishi ushbu maktablarni elita tayyorlashning zamonaviy milliy tizimiga aylantirmoqda.

Uchinchi yo'nalish. «Taraqqiyot» tanlovi va «Kelajak liderlari» klubi. Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tizimli asosda tanlash maqsadida 2018-yilda e'lon qilingan «Taraqqiyot» respublika tanlovi yirik ko'lam va shaffoflik bilan o'tkazildi. Tanlovda 8 334 nafar talabgor ro'yxatdan o'tdi; ko'p bosqichli tanlash jarayoni — onlayn test, axborot-tahliliy material tayyorlash, tashkilotchilik qobiliyati va boshqaruv salohiyatini aniqlash boshliqlari orqali — 50 nafar g'olib va 100 nafar finalchi aniqlandi.[1] Baholash mezonlari sifatida boshqaruv professionalizmi, liderlik qobiliyati, tizimli fikrlash salohiyati va o'zgarishlarga moslashuvchanlik belgilanganligi ushbu tanlovning zamonaviy boshqaruv talablariga muvofiqligini ko'rsatadi.

1-jadval. O'zbekistondagi ta'lim orqali kadrlar tayyorlash milliy mexanizmlari tahlili

Mexanizm	Maqsad auditoriya	Asosiy mezonlar	Natija
Prezident maktablari	Iqtidorli o'quvchilar (umumiy)	Intellektual salohiyat, akademik	Yuqori malakali mutaxassislar uchun

Mexanizm	Maqsad auditoriya	Asosiy mezonlar	Natija
	o'rta ta'lim)	ko'rsatkichlar	poydevor
«Taraqqiyot» tanlovi	20-35 yoshli OTM talabalari va davlat xizmatchilari	Boshqaruv professionalilizmi, liderlik, tizimli fikrlash	50 g'olib — rahbarlik lavozimiga; 100 finalchi — kadrlar zaxirasiga
«Kelajak liderlari» klubi	20-35 yoshli iqtidorli yoshlar va yosh xizmatchilar	Hujjat ko'rib chiqish, test, insho, suhbat	Lider yoshlarni rivojlantirish va tarmoq shakllantirish

Manba: O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari va rasmiy ochiq ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ta'lim orqali kadrlar tayyorlashning uch pog'onali tizimi shakllantirilgan: maktab bosqichida iqtidorni aniqlash (Prezident maktablari), oliy ta'lim va yosh mutaxassislar bosqichida raqobatli tanlash («Taraqqiyot» tanlovi) va tanlangan kadrlarni tizimli rivojlantirish («Kelajak liderlari» klubi). Bu pog'onali yondashuv xalqaro ilg'or tajribaga — xususan Buyuk Britaniya va Fransiya modellariga — yaqinlashmoqda.

Tadqiqot natijalari ta'lim tizimi va kadrlar siyosati o'rtasidagi munosabatlar haqida bir qator muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, rivojlangan demokratik davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalari — ayniqsa nufuzli maktablar va oliy o'quv yurtlari — boshqaruv elitasini tiklashning institutlashgan kanaliga aylanishi mumkin. Bu jarayon sezgisiz va ko'pincha rasman e'tirof etilmagan tarzda amalga oshirilsa-da, uning ijtimoiy ta'siri juda kuchli bo'ladi.[2]

Ikkinchidan, O'zbekistondagi milliy mexanizmlarning o'ziga xos kuchli jihati shundaki, ular ochiq va shaffof tanlov asosida qurilgan. Buyuk Britaniyada elitaga kirish ko'p jihatdan ota-onalar ijtimoiy maqomiga bog'liq bo'lsa (Eton o'quvchilarining uchdan ikki qismini shu maktab bitiruvchilarining farzandlari tashkil etadi), O'zbekistondagi «Taraqqiyot» tanlovi yoki Prezident maktablariga kirish meritokratik tamoyilga — bilim, qobiliyat va salohiyatga — asoslanadi. Bu farq katta ijtimoiy adolat va ijtimoiy harakatchanlik nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba bilan taqqoslash

Fransiya tajribasi O'zbekiston uchun alohida qiziqish uyg'otadi. Fransiyada siyosiy elitaga tanlov vaqt nuqtai nazaridan chegaralangan bo'lib, imtihondan o'ta olmagan da'vogarlar qayta topshirish imkoniyati cheklangan. Bu esa elitaga kirish istagi bor kishining taqdiri yoshlik davrida — oliy o'quv yurtiga kirish paytida hal qilinishini anglatadi.[6] O'zbekistondagi model esa nisbatan moslashuvchan: «Taraqqiyot» tanlovida 20-35 yoshli da'vogarlar ishtirok etishi mumkin, ya'ni bir nechta hayot bosqichlarida o'zini sinab ko'rish imkoniyati saqlanib qoladi. Bu yondashuv Fransiya modeliga nisbatan kengroq ijtimoiy qatlamlardan kadrlarni jalb etish imkonini beradi.

Muammolar va takomillashtirish yo‘llari

Mavjud tizimni yanada takomillashtirish uchun quyidagi muammolarni hal etish zarur:

– Prezident maktablaridan chiqqan bitiruvchilarni keyingi kadrlar tizimiga bog‘lovchi uzluksiz yo‘l xaritasining mavjud emasligi — maktab bitiruvchilari va keyingi boshqaruv liderlik tizimlari o‘rtasida institutlashgan ko‘prik yaratish zarur;

– «Taraqqiyot» tanlovi g‘oliblarining kasbiy rivojlanish jarayonini doimiy kuzatib boruvchi monitoring tizimining to‘liq shakllanmaganligi;

– hududlar va viloyatlar o‘rtasidagi tengsizlik — Prezident maktablari va «Kelajak liderlari» klubi kabi mexanizmlarga kirish imkoniyati hali ham geografik jihatdan noteng taqsimlangan;

– xalqaro elita tayyorlash institutlari bilan hamkorlik va o‘zaro tan olish mexanizmlarining rivojlantirilishi zarurligi.[5]

Xulosa Ushbu tadqiqot ta‘lim tizimining O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosatini amalga oshirishdagi ta‘sirchan vosita sifatidagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslab, xalqaro va milliy tajribani qiyosiy tahlil asosida ko‘rib chiqdi. Birinchidan, xalqaro tajriba — Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa rivojlangan demokratik davlatlar misoli — ta‘lim muassasalari va siyosiy-boshqaruv elitasi shakllanishi o‘rtasida mustahkam va institutlashgan bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, O‘zbekistonda ta‘lim orqali kadrlar tayyorlashning uch pog‘onali milliy tizimi — Prezident maktablari, «Taraqqiyot» respublika tanlovi va «Kelajak liderlari» klubi — xalqaro andozalarga to‘liq mos keladigan, lekin milliy sharoitga moslashtirilgan zamonaviy mexanizmlar sifatida shakllanmoqda. Bu mexanizmlarning meritokratik tamoyilga asoslanishi O‘zbekiston modelining o‘ziga xos kuchli jihati hisoblanadi. Uchinchidan, tizimni yanada takomillashtirish uchun pog‘onalar o‘rtasidagi uzluksiz yo‘l xaritasini shakllantirish, geografik tengsizlikni bartaraf etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi: Prezident maktabi bitiruvchilari va «Taraqqiyot» tanlovi g‘oliblarini bog‘lovchi uzluksiz kadrlar rivojlanish portfelini shakllantirish; kadrlar tizimida hududiy qamrovni kengaytirish maqsadida viloyatlar bo‘yicha qo‘shimcha tanlov mexanizmlarini joriy etish; g‘oliblar va finalchilarning kasbiy rivojlanishini kuzatib boruvchi raqamli monitoring platformasini yaratish; xalqaro nufuzli ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik va o‘zaro tan olish bitimlarini kengaytirish. Ushbu tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy, raqobatbardosh kadrlar salohiyatini shakllantirish yo‘lidagi sa‘y-harakatlarini yanada kuchaytiradi deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5843-sonli Farmoni. (2019). O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. <https://lex.uz>

2. Komarovskiy, V.S. (red.). (2006). Politologiya. Izdatelstvo RAGS, Moskva.
3. Ortiqova, N.A. (2021). Formation Systems of Political Elite: Essence, Peculiarities and Advantages. Psychology and Education, 58(2), 8031–8037. (Scopus, Q4.)
4. Karimov, I.A. (1995). Yuqsak malakali mutaxassislar — taraqqiyot omili. O‘zbekiston nashriyoti, Toshkent.
5. Putnam, R.D. (2000). Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. Simon & Schuster, New York.
6. Bourdieu, P. (1989). The State Nobility: Elite Schools in the Field of Power. Polity Press, Cambridge.
7. Prezident maktablari rasmiy sayti. <https://pm.piima.uz>

